



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 15-iyul

VI-44-70-6-0-K/24

Namangan viloyati

Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish ishlarini tashkiletish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuniga asosan Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlaridagi Mamay, Qayroqi, Oqtom, Madaniyat mahallalarida joylashgan mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yangiqo'rg'on tuman hokimligining Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlaridagi Mamay, Qayroqi, Oqtom, Madaniyat mahallalarida joylashgan 16 ta turar joy, 2 ta xususiy bog'zor va Namangan viloyati prokuraturasiga qarashli "Dam olish maskani" bino-inshooti, jami 19 ta mulkdorlarning yashash xonadonlari, xususiy bog'zorlari va noturar obyekti yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbusi ma'qullansin.

2. Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlaridagi Mamay, Qayroqi, Oqtom, Madaniyat, mahalla fuqarolar yig'inlarida joylashgan, 16 ta turar joy, 2 ta xususiy bog'zor va Namangan viloyati prokuraturasiga qarashli "Dam olish maskani" bino-inshooti, jami 19 ta huquq egalari bilan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida ochiq muhokama o'tkazilishiga rozilik berilsin.

3. Yangiqo'rg'on tuman hokimi (A.Najmiddinov):

tumandagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorlarni to'liq o'rgangan holda ochiq muloqotda har birining ishtirokini ta'minlash;

ochiq muloqot yakuniga ko'ra amaldagi tartib qoidalar asosida ochiq muhokama bayonnomasini tuzish;

bayonnomaga ochiq muhokamada ishtirok etgan tashabbuskor hamda huquq egalarining (ular vakillarining) ro'yxati, shuningdek ochiq muhokama jarayonining audio va video yozuvi ilova qilinishini to'liq ta'minlash;

ochiq muloqot tarzida tayyorlangan bayonnoma xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etish choralari ko'rsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida viloyat hamda Yangiqo'rg'on tuman hokimliklariga yuborilsin.

5. Mazkur qaror Yangiqo'rg'on tuman hokimligining rasmiy veb-saytida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to'liq hajmda e'lon qilinsin.

6. Mazkur qarorining ijrosini ta'minlab borishga mas'ul etib Yangiqo'rg'on tuman hokimi A.Najmiddinov belgilansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish vazifasi Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi A.Iminov hamda viloyat hokimining o'rinbosari G'.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



ABDURAZAKOV
SHAVKAT
SHOKIRDJANOVICH